


2022- yilning yanvar-iyunida Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyunida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 19 476,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 4,1 % ga o'sdi .

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 116,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,0 % ga yetdi.




2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021- yil	2022- yil	
I. YAHM, jami	16 102,8	19 476,5	104,1
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 499,8	18 509,9	104,0
mahsulotlarga sof soliqlar	603,0	966,6	108,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 499,8	18 509,9	104,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 182,4	6 901,6	103,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 166,2	5 327,9	101,3
sanoat	2 644,6	3 539,2	101,0
qurilish	1 521,6	1 788,7	101,8
xizmatlar	5 151,2	6 280,4	106,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 265,6	1 664,8	116,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	959,0	1 097,2	108,5
boshqa xizmat tarmoqlari	2 926,6	3 518,4	102,4

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 9 818,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 % ga yuqoridir .

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 5,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 37,3 % ni, sanoat tarmog'i 19,1 % ni, qurilish 9,7 % ni va xizmatlar sohasi 33,9 % ni tashkil qildi.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,3	95,0
mahsulotlarga sof soliqlar	3,7	5,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	39,9	37,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,9	28,8
sanoat	17,1	19,1
qurilish	9,8	9,7
xizmatlar	33,2	33,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,2	9,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,2	5,9
boshqa xizmat tarmoqlari	18,8	19,0

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 37,3 %), sanoatda – 101,0 % (19,1 %), qurilishda – 101,8 % (9,7 %), xizmatlar sohasida – 106,9 % ni (33,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 116,1 % (9,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,5 % (5,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,4 % dan (19,0 %) iborat bo'ldi.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,3 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,1 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,4 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,2 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,9 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,2 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 5,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi

2022- yilning yanvar-iyunida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 116,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 132,5 % va qurilish sohasida – 115,4 % qayd etildi.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 72,0 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyunida – 73,5 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil

73,5 %

2022- yil

72,0 %